



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI
MINISTRY OF ENERGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 100047, Toshkent sh., Istiqbol ko'chasi, 21-uy
Tel.: +998 71 236-27-08, +998 71 236-38-22, El. pochta: info@minenergy.uz, minenergy@exat.uz



18.07.2024 yil

02-06-5332-son

O'zbekiston Respublikasi
Iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish jamiyatlari
federatsiyasiga

Energetika vazirligi O'zbekiston Respublikasi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasining 2024-yil 5-iyuldagi JS/01-103-son murojaati bo'yicha quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-son qarori bilan joriy yilning 1-maydan boshlab, maishiy iste'molchilarga elektr energiyasi uchun bir oylik iste'molning "bazaviy me'yorlari" tasdiqlandi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad iste'molchilarda elektr energiyasi iste'moli samaradorligini oshirish, Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiya hajmini to'g'ri va manzilli taqsimlash hamda yoqilg'i-energetika resurslari bilan ishonchli tarzda ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, 2024-yilda respublika aholisi tomonidan jami 21,2 mlrd kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilinishi rejalashtirilgan. Shundan, yil davomida o'rtacha oylik iste'moli 200 kVt/soatgacha bo'lgan iste'molchilar jami abonentlarning 60 foizini tashkil etadi.

Mazkur ko'rsatkich, isitish mavsumida (noyabr-fevral) 48 foizni va boshqa davrlarda esa 66 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda elektr energiyasi iste'moli yil davomida keskin o'zgarmasligini inobatga olib, yil davomida bir xil bazaviy me'yor joriy qilingan.

Birinchiidan, bazaviy me'yor bu elektr energiyasining bir oyda 200 kVt/soatgacha bo'lgan iste'mol hajmi hisoblanib, mazkur iste'mol doirasida barcha maishiy iste'molchilar har bir kVt/soat iste'mol uchun "imtiyozli yoki subsidiyalanadigan" narxda ya'ni 450 so'm (QQS bilan)dan haq to'laydilar.

Shuningdek, yuqoridagi qarorga muvofiq, iste'mol oyiga 201 kVt/soatdan 1 000 kVt/soatgacha bo'lganda, mazkur me'yor doirasida

har bir kVt/soat elektr energiyasi iste'moli uchun 900 so'm (QQS bilan)dan, iste'mol oyiga 1 001 kVt/soatdan 5 000 kVt/soatgacha bo'lganda 1 350 so'm (QQS bilan)dan, 5 001 kVt/soatdan 10 000 kVt/soatgacha bo'lganda 1 575 so'm (QQS bilan)dan, 10 001 kVt/soatdan yuqori bo'lganda 1 800 so'm (QQS bilan)dan hisob – kitoblar amalga oshiriladi.

Tahlillarga ko'ra, joriy yilning iyun oyida 46 foiz aholi 100 kVt/soatgacha, yana 25 foizi 101-200 kVt/soatgacha elektr energiyasi iste'mol qilganligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, aholi abonentlarining 71 foiziga oshirilgan (900 so'm va undan qimmat) narxlar ta'sir qilmagan.

Ikkinchidan, 22 foiz iste'molchi 201 kVt/soatdan 1000 kVt/soatgacha iste'mol qilgan va 900 so'mdan haq to'lagan. Bunda elektr energiyasi iste'moli 201 kVt soatdan 300 kVtgacha bo'lgan iste'molchilar salmog'i 11 foizni tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: 300 kVt/soatgacha elektr energiyasi iste'mol qilganlar to'liq 900 so'mdan haq to'lamaydi. Bunda 200 kVt/soatgacha 450 so'mdan, qolgan 100 kVt/soatga 900 so'mdan to'laydi. Ya'ni, 300 kVt/soat elektr iste'mol qilganlarga nisbatan ham narx keskin oshmagan (bazaviy me'yordan ortiqcha 100 kVt/soat iste'mol uchun subsidiyalanadigan narxda hisoblanadigan summaga nisbatan + 45 000 so'm ($100 * 450$) qo'shimcha to'lagan).

Uchinchidan, qolgan 7 foiz aholi 1 001-10 000 kVt/soat elektr energiyasini iste'mol qilib, 1 350 so'mdan to'lovlarni amalga oshirgan.

Bunday xonadonlar o'ziga to'q, subsidiyaga muhtoj bo'lmagan, birlamchi ehtiyojlardan tashqari qo'shimcha qulayliklarga ega xususan, elektromobil(lar)i, hovlisida basseyn, fontan, ko'plab yoritgich jihozlari yoki qimmatbaho boshqa elektron maishiy qurilmalari mavjud aholi xonadonlari hisoblanadi.

Taqqoslash uchun: 1 000 kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilgan 1 ta xonadon, tejamkor va energiya samarador 10 ta iste'molchi, 10 000 kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilgan 1 ta xonadon esa tejamkor 100 ta iste'molchi iste'moliga to'g'ri keluvchi iste'molni amalga oshirishi ma'lum bo'ldi.

O'rganishlarimizga ko'ra hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda elektr energiyasi iste'moliga joriy qilingan bazaviy me'yorga nisbatan norozilik bildirayotgan fuqarolar ham aynan oyiga 1 000 kVt/soatdan ko'p elektr energiyasi iste'mol qiluvchilar hisoblanadi.

To'rtinchidan, Respublika bo'yicha jami 1,1 mlrd kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilingan bo'lib, shundan:

- 100-200 kVt/soatgacha (71 foiz) iste'molchilar jami iste'molning 40 foizini;
- 200-300 kVt/soatgacha (11 foiz) iste'molchilar jami iste'molning 19 foizini;

– 300-400 kVt/soatgacha (5 foiz) iste'molchilar jami iste'molning 12 foizini;

– 400-500 kVt/soatgacha (3 foiz) iste'molchilar jami iste'molning 8 foizini;

– qolgan 500 kVt/soat va undan ko'p energiyani iste'mol qiluvchilar atigi 3,7 foiz bo'lib, ular jami iste'molning 21 foizini iste'mol qilmoqda.

Beshinchidan, hozirda 1 kVt/soat elektr energiyasining tannarxi 2024-yilning 1-aprel holatiga 895 so'mni, QQS bilan 1 002 so'mni tashkil etadi.

Bunda:

Elektr energiyasi ishlab chiqarish xarajatlari – 741,93 so'm;

Transportirovka xarajatlari – 57,8 so'm;

Taqsimlash va sotish xarajatlari – 202,4 so'mga teng.

(Diqqat: Mazkur hisob – kitoblarda elektr energiyasi importi hamda Davlat xususiy sherikchiligi bitimlari bo'yicha kafolatli sotib olinadigan elektr energiya tannarxi hisobga olinmagan).

Aholiga yetkazib berilayotgan har bir kVt/soat elektr energiya uchun bazaviy me'yor doirasida 552,4 so'm, 201 kVt/soatdan – 1 000 kVt/soatgacha iste'mol amalga oshiruvchi iste'molchilarga esa 102,1 so'm davlat tomonidan qoplab berilmoqda.

Ya'ni, 200 kVt/soat elektr iste'mol qilgan 1 ta xonadon uchun davlat 110,5 ming so'mdan, 1 000 kVt/soat elektr energiyasi iste'mol qilgan xonadon uchun 192,2 ming so'mdan qoplab berilmoqda.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy yilning 16-aprelida qabul qilingan "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 204-son qaroriga muvofiq, tabiiy gaz hamda elektr energiyasi tariflari oshirilishi ta'sirini yumshatish maqsadida isitish mavsumida (noyabr — fevral oylarida) ehtiyojmand oilalarga bir qancha kompensatsiya turlari taqdim etilmoqda. Xususan:

Ijtimoiy himoya milliy agentligi "Xalq banki" ATB bilan birgalikda noyabr oyida 270 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam o'tkazib beradi. Bundan tashqari tabiiy gaz uchun — oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 250 kub metrgacha hamda elektr energiyasi uchun — oyiga bazaviy me'yordan ortiq foydalanilgan 150 kVt/soatgacha tabiiy gaz va elektr energiyasi bo'yicha bazaviy me'yor doirasidagi hamda bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi.

Bunda kompensatsiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali to'lab beriladi.

Hisoblab ko'rsak, isitish mavsumida (noyabr-fevral) 750 kub metr gaz iste'molini amalga oshiruvchi ehtiyojmand xonadon bir martalik 270 ming

so'm kompensatsiyadan tashqari har oy me'yordan ortiqcha iste'mol uchun qo'shimcha ravishda (250 kub metr * (1500-650) 212 ming 500 so'm kompensatsiya oladi.

Xuddi shunday elektr energiyasi uchun oylik iste'moli 350 kVt/soat bo'lgan ehtiyojmand xonadon 200 kVt soatdan oshgan 150 kVt/soatgacha 67 ming 500 so'm miqdorda kompensatsiya oladi.

Yuqoridagilarga muvofiq, bazaviy me'yor sifatida o'rnatilgan 200 kVt /soat hajmini oshirish bo'yicha asos mavjud emasligi ma'lum qilinadi.

**Vazirning birinchi
o'rinbosari**



B. Mamatkarimov